

MAHALLA FUQAROLAR YIG'ININI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH VA BOSH REJASINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI

Sharipov Shavkat Shuxrat o'g'li

Jizzax Politexnika instituti Buxgalteriya

hisobi va audit yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Qahhorova Mashhura Baxrom qizi

O'zMU Jizzax filiali iqtisodiyot yo'nalishi bakalavr 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18810822>

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston mahallalari fuqarolar yig'inini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning samarali strategiyalari tahlil qilinadi. Mahalla bosh rejasi orqali hudud infratuzilmasi, tadbirkorlik va ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Amaliy misollar va hududiy statistikalar orqali maqolada mahalla darajasida strategik rejalashtirishning samaradorligi namoyish etilgan. Muammolar va ularni hal etish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Mahalla fuqarolar yig'ini, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, bosh reja, strategik rejalashtirish, tadbirkorlik, ijtimoiy xizmatlar, hududiy monitoring

Kirish. Mahalla – O'zbekiston ijtimoiy va iqtisodiy hayotining eng asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Mahalla fuqarolar yig'ini aholining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda mahallani rivojlantirish nafaqat ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, balki iqtisodiy salohiyatni oshirish, bandlikni ta'minlash va hududlarni modernizatsiya qilish uchun dolzarb masala hisoblanadi. Maqolaning maqsadi – mahalla fuqarolar yig'inini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning samarali strategiyalarini tahlil qilish va bosh rejani shakllantirishga ilmiy-asosli tavsiyalar ishlab chiqish.

Mahalla bosh rejasi orqali hududning infratuzilmasi, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va yoshlar bandligini ta'minlash mumkin. So'nggi yillarda davlat dasturlari va prezident qarorlari mahalla faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, raqamli platformalar va elektron xizmatlarni joriy etish dolzarb vazifa sifatida belgilangan.

Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi quyidagi jihatlar orqali amalga oshiriladi:

Iqtisodiy faoliyat: Mahalla aholisi orasida mahallaning ijtimoiy iqtisodiy va geografik joylashuvidan kelib chiqib kichik biznes, tadbirkorlik va xizmat ko'rsatish turlarini rivojlantirish. Mahalla tadbirkorlari uchun moliyaviy yordam va grantlar taqdim etish.

Bandlik va ta'lim: Mahallada istoqomat qiluvchi yoshlar va ayollarni ish bilan ta'minlash, kasbiy kurslar va malaka oshirish imkoniyatlarini yaratish.

Ijtimoiy xizmatlar: Mahalla fuqarolar yig'inida sog'liqni saqlash, ta'lim va madaniyat maskanlarini rivojlantirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarini har tomonlama ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash.

Barqaror rivojlanish: Mahalla hududlarida yashil zonasini kengaytirish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik muhitni yaxshilash.

Mahalla bosh rejasi hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini strategik jihatdan rejalashtirishga xizmat qiladi. Bosh rejaning tarkibi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Hududiy infratuzilma (yo'l, transport, kommunal xizmatlar).
- Ijtimoiy infratuzilma (maktab, bog'cha, klinika, madaniyat markazlari).
- Iqtisodiy infratuzilma (kichik biznes zonalarini, bozorlar, xizmat ko'rsatish punktlari).

- Raqamli va innovatsion yechimlar (mahalla elektron portali, onlayn xizmatlar, monitoring tizimi).

2026-yil 23-janvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida kambag‘allikni qisqartirish va bandlik masalalariga bag‘ishlangan videosektor yig‘ilishida 903 ta “og‘ir” mahalla bo‘yicha quyidagi muhim qarorlar qabul qilindi. Jumladan. Bosh rejalar va talabalar ishtiroki: Respublika bo‘yicha 903 ta “og‘ir” mahallaning bosh rejalarini ishlab chiqishga 18 ta oliy ta‘lim muassasasida tahsil olayotgan 7 mingga yaqin arxitektura va zarur xollarda iqtisodiy yo‘nalishidagi talabalar jalb etilishi belgilangan. Ushbu “Og‘ir” tumanlardagi ushbu 903 ta mahallaning har biriga infratuzilmani yaxshilash, kambag‘allik va ishsizlikni qisqartirish uchun 1 milliard so‘mdan mablag‘ ajratilishi belgilangan.

Mahalla fuqarolar yig‘inining bosh rejasini tuzishda mahallaning qo‘shni hududlar bilan chegaralari aniqlanishi, mahalla pasporti(ombor kitobi) dan aholining demografik holati o‘rganish, suv tarmoqlari bilan ta‘minlanlik holati, elektr tarmog‘i bilan ta‘minlanganligi, gaz tarmoqlari bilan ta‘minlanganligi, maktabgacha ta‘lim muassasalari, maktablar, o‘quv muassasalari soni, o‘quvchilar soni, sig‘imi, qavatlar soni, qurilgan yili, tarbiyalanuvchilar soni, ishchi o‘rni, holati, ta‘mirtalablik darajasi, sog‘liqni saqlash muassasasi bilan ta‘minlanganligi, mavjud sport inshootlari, xizmat ko‘rsatish ob‘ektlari (bozorlar, do‘konlar, maishiy xizmat ko‘rsatish ob‘ektlari, ishlab chiqarish inshootlari, avtobekatlar, avtomobillarga xizmat ko‘rsatish punktlari, fermalar, issiqxonalar), qabristonlar holati maydonini o‘rganish va takliflar yayyorlash lozimligi belgilangan.

Shunga ko‘ra Baxmal tumani “Davlat” mahallasida tadqiqotimiz davomida quyidagilar aniqlandi. “Davlat” mahallasida xonadonlar soni 789 ta bo‘lib, istiqomat qiluvchi oilalar soni 859 tani tashkil etdi. Doimiy yashovchi aholi soni – 4466 nafar bo‘lib, shundan, 2158 nafari ayollar, 2097 nafari yoshlar, 24 nafarini migrantlardan iborat. “Davlat” mahallasida ishsizlar soni 70 tani tashkil etib, ishsizlik darajasi 1.2%, kambag‘al oilalar soni - 85 tani tashkil etib kambag‘allik darajasi 1%ni tashkil etdi.

Mahalla fuqarolar yig‘inini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va bosh rejasini shakllantirishda 7 ta ko‘chalarni 12.9 km qismini shag‘allashtirish, 2 ta ko‘chalarning 1.5 km yo‘llar joriy ta‘mirlash, elektr tarmoqlari uchun 180 ta stolba o‘rnatish, 1.2 km salomatlik va piyodalar yo‘lakchalari qurish, 7.8 km SIP kabellari tortish, 4 ta transformator va 720 ta tungi chiroqlar o‘rnatish, mahalla hududida avtobus qatnovi yo‘lga qo‘yish, 6000 donadan ortiq mevali va manzarali daraxt va buta ko‘chatlari ekish kabi yo‘l xaritasiga kiritiladigan ishlarni kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Mahalla fuqarolar yig‘ini (MFY) – O‘zbekiston ijtimoiy hayotida eng past darajadagi, lekin eng samarali boshqaruv va jamoatchilik instituti hisoblanadi. Mahalla jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishida markaziy rol o‘ynaydi, ayniqsa 2025–2026 yillarda mahallalarning rivojlanishiga qaratilgan davlat strategiyasi va dasturlarining amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Prezidentning 2025-yil 20-fevraldagi nutqida “Mahalla – jamiyatning eng yaqin va samarali boshqaruv darajasi. Aholi bilan muloqot, ularning muammolarini tezkor hal etish, ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish 2025–2026 yillarda milliy taraqqiyot strategiyasining muhim ustunidir.” deyilgan edi. Shu nuqtai nazardan, 2025–2026 yillarda mahalla fuqarolar yig‘inini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va bosh rejasini

shakllantirish jarayonida Prezidentning ko'rsatmalari va strategik maqsadlari asosiy yo'nalish sifatida qabul qilinadi. Mahalla rahbarlari va aholining faol hamkorligi, rejalashtirilgan resurslarni samarali boshqarish orqali mahallalar barqaror rivojlanadi, ijtimoiy va iqtisodiy hayot jonlanadi, bandlik va ta'lim darajasi oshadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak mahalla fuqarolar yig'ini jamiyatning eng asosiy ijtimoiy bo'g'ini sifatida aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mahallani rivojlantirishning samarali yo'llari nafaqat uning iqtisodiy salohiyatini oshirish, balki aholining ijtimoiy farovonligini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Mahalla bosh rejasini shakllantirish jarayonida hududning tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy resurslari, mavjud infratuzilma va aholi ehtiyojlari asosiy omil sifatida hisobga olinishi lozim. Samarali bosh reja mahallaning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish va aholining ishtirokini rag'batlantirish orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, mahalla darajasida innovatsion loyihalarni joriy etish, jismoniy va iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining fikrini hisobga olish – uning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini samarali amalga oshirishning muhim shartlari hisoblanadi. Natijada, mahalla fuqarolar yig'ini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tizimli va barqaror yo'lga qo'yish, hududdagi boshqaruv tizimini takomillashtirish va aholining yashash darajasini oshirish imkonini beradi. Bu esa nafaqat mahallaning o'zini, balki butun jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha 2026-yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi berilgan topshiriqlar. 23.01.2026 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Mahallalarni rivojlantirish va aholining farovonligini oshirish" mavzusidagi nutqlari, 2020–2025 yillar.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-fevraldagi nutqi, "Mahalla – jamiyatning eng yaqin boshqaruv darajasi".
4. O'zbekiston Respublikasi "Mahallalar to'g'risida"gi Qonuni, 2019-yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi "Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". Qarori.